

**Said Ahmadning “Kelinlar qo`zg`oloni” komediyasida qo`llangan
maqollarning shakl va mazmuni**

Muxlisa Pardaboyeva Zokir qizi

JDPU o`zbek tili va adabiyoti mutaxassisiligi magistranti

***Annatsiya:** Ushbu maqolada Said Ahmadning “Kelinlar qo`zg`aloni” komediyasida keltirilgan maqollarning qo`llanilish o`rni, shakli va mazmuni tahlilga tortilgan. Asarni o`qir ekanmiz, Said Ahmadning topqirligiga, har bir maqolni o`z o`rnida qo`llay olganligiga, umuman olganda o`tkir yumor ostida so`zlardan mahorat bilan foydalanganligiga tan bermaslikning ilojisi yoq ekanligiga yana bir marotaba amin bo`lamiz*

***Kalit so`zlar:** maqol, matal, maqollarning kelib chiqishi, “Kelinlar qo`zg`aloni” asari, yumor*

Qadim qadimdan ota-bobolarimizning og`zaki ijodidan bizga meros-u an`ana bo`lib kelayotgan maqollarni bugungi kunda juda ko`plab insonlar o`z nutqlarida qo`llaydilar. Maqol ibratli so`zdir. Shunday so`zki, u inson nutqini go`zallashtirishga, fikrni aniq va chiroyli qilib ifodalashga yordam beradi. Shu sababli maqollar har doim inson nutqiga hamroh. Maqol ajdodlarimizning uzoq yillar davomida ko`rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir va ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, ifoda lo`nda, xulosa tugal boladi. Maqollar fikrni ta`sirchan va bo`yoqdor qilib ko`rsatadi.

Nutqda maqollardan o`rinli foydalanish so`zlovchining naqadar mahoratli ekanidan darak beradi. Bejiz “ Ilm o`lchovi – aql, zehn o`lchovi -naql ” deyilmaydi. Maqollar bizning nutqimizga qadimdan kiritilgan, ammo ularning kelib chiqishi haqida kam odam o`ylaydi. Chunki u davrlarda barqaror frazeologik birliklar mavjud emas edi. Shunday bo`lsada maqollar yangi muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam berdi. Qadimiy dostonlarimizda keltirib o`tilgan maqollar bugungi kunda ham o`zing ahamiyatini yo`qotmasdan xalqimiz so`zlashuvida, adabiyotida, bir so`z

bilan aytganda fikrni qisqa, lo`nda qilib ifodalash uchun ishlatilib kelinmoqda. “Maqol” atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so`zidan olingan. Maqol atamasining o`rganilish tarixi Mahmud Koshg`ariyga borib taqaladi. O`zining “Devonu lug`ati turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o`rin olgan, undan tashqari so`z mulkining sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e`tibor berilganligini ko`rishimiz mumkin.

Shu bilan birga mamalakatimiz mutaqqillikka erishganidan so`ng xalq ijodi namunalariga ko`plab e`tibor ajratildi. Xalq orasidan turli maqol- matallar, iboralar, hikmatli so`zlar yig`ila boshlandi. Ko`plab yozuvchilarimiz o`z asarlarida maqollardan mohirlik bilan foydalana boshladilar. O`zbekiston Qahramoni, O`zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ham shular jumlasidandir. Umuman olganda, Said Ahmad maqol, matal, masal va idiomalardan unumli foydalanib, asarning emotsional-ekspressivligini kuchaytira oladigan poetik vositalardan biriga aylantirgan. U komediya janrida ham so`zlardan mohirlik bilan foydalangan, ayniqsa maqollarning joylashuv o`rni bir fikrning isboti sifatida o`quvchining diqqatini tortmasdan qolmaydi. Uning “Kelinlar qo`zg`oloni” spektakli aytilayotgan gaplarimizning yaqqol namunasi. Barchamizga ma`lum va mashhur bolishga ulgurgan, televideniylarimizda qayta -qayta qo`yilsa ham tomoshabinlarning e`tiboridan qolmaydigan bu komediyada maqol so`zi ishlatilishi bilanoq ko`z oldimizga Bashorat kelin gavidalanadi. Uning har bir gapini maqol bilan gapirishi va ushbu maqollarni o`z o`rniga qo`yib qo`llay bilishi bu eng avvalo yozuvchining naqadar mahoratga ega ekanligidan dalolatdir. Fikrimizning isboti sifatida asardan bir parchasini tahlilga tortib ko`ramiz:

“Bashorat. Mana, oyijon.

Farmon. (Bashoratga) Kam-ko`stingni ayt. Nima kerak?

Bashorat. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek,...

Farmon. (gapini bo`lib) Maqol qo`shmay gapir. Maqol ham o`lsun, bo`lar-bo`lmasga suqulmay.

Bashorat. Maqol so`z ko`rki, o`zingizdan qolar gap yo`q. Do`st boshga,

dushman oyoqqa qaraydi, deganlaridek, tuflimning rangi o'chib, tumshug'i yalpayib ketibdi.

Farmon. Usta Boqi o'lgurga to'g'ratib bersam bo'lmaydimi?

Bashorat. Eskini yamasang, esing ketadi, deganlaridek... Yetti marta tagiga charm qoqib bergan.

Farmon. (Sottiga) Yoz. Tufli deb yoz. Yana nima kerak?

Bashorat. Yegan og'iz uyalar. Qudachilik ming yilchilik, o'zingiz bilasiz, bittayu bitta qizim. Ko'zimning oq-u qorasi, haligi, qudalarimni bir chaqirsam degandim.

Farmon. Quda, quda. Qudangni tinch qo'y. Bunaqada boshingga chiqarib qo'lasan. Ular ko'p ziyofatimizni yeyishgan. Sarpolarni to'qqiz-to'qqiz qilib kiyishgan. Qiz uzattingmi, endi jim o'tir. Bo'ldi, ketaver.

Bashorat. Yuzga aytganning zahri yo'q, Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim, qo'ying oyi. Ziqlaligingiz jonimga tegdi. Ro'zg'orimni bo'lak qilib bering yo javobimni bering" [Said Ahmad, 1976: 14-bet]

Keltirilgan ushbu kichik parchada birgina Bashorat kelin nutqida sakkiz maqol ishlatilganligini va bu bilan har bir gapining emotsional ta'sirchanligini yanayam oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari asar davomida ham uning nutqida "Kichkina demang bizni, ko'tarib uraman sizni", "Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga", "To'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tipratikon yumshog'im deyar ekan", "Har kimniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga", "Men ham edim seningdek, sen ham bo'lasan meningdek", "Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur", "Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi", "Kemaga tushganning joni bir" kabi o'nlab maqollarni ko'rishimiz mumkin. Said Ahmaddek yozuvchi o'zining ushu asarida faqat Bashorat kelinning emas balki boshqa obrazlari nutqida ham maqollarning eng saralarini chertib-chertib foydalanishga harakat qilgan. Farmonbibi nutqida "Qiz bolani zoriqishi -yomon yo'lga kirishi", "Xo'rozqand chet elniki desa yotib yalashadi", "Ko'p gap ewakka yuk", Komil nutqida: "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas", Ma'mur nutqida: "Qari bilganni – pari bilmas", usta Boqi nutqida: "Yaqindagi tishlashadi, uzoqdagi qishlashadi", Nigora nutqida: "Kurash qurbonsiz bo'lmas" va shu kabi maqol va matallarni o'qib guvohi bo'lamiz.

Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Said Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasida qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida foydalanilgan har bir maqollar ma'lum bir so'zning nominativ ma'nosini uslubiy-ekspressiv bo'yoq, salbiy, ijobiy munosabat, ko'tarinki ruh, mag'rurlik, achinish kabi ottenkalari bilan ifodalaganligi; metafora va metanimiya, sinekdoxalardan o'rinli foydalanish hazil-mutoyiba uchun xizmat qilganligi; maqol-matal va hikmatli so'zlar bayon qilinayotgan fikrni hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligini kuchaytirib, matnga badiiy ko'rk bag'ishlaganini guvohi bo'ldik.